

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI**



**“TASDIQLAYMAN”**

Termiz iqtisodiyot va servis  
universiteti rektori

A.U.Sattarov

**TIBBIYOTDA XORIJIY TIL  
FANINING O‘QUV DASTURI**

**(kunduzgi ta‘lim yo‘nalishi uchun)**

Bilim sohasi: 900000 – Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta‘minot  
Ta‘lim sohasi: 910000 – Sog‘liqni saqlash  
Ta‘lim yo‘nalishi: 60910800 – Farmatsiya

Fan/modul kodi TXT1206	O'quv yili 2024-2025	Semestr 2	ECTS – Kreditlar 6	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili Ingliz/O'zbek		Haftadagi dars soatlari 6	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Tibbiyotda xorijiy til (ingliz tili)	90	90	180

2.

**I. Fanning mazmuni**

**Fanni o'qitishdan maqsad** – Nofilologik ta'lim yo'nalishlarda Xorijiy tilni o'rgatishdan asosiy maqsad kelgusi mutaxassislarda kundalik hayotlari, ilmiy va kasbiy faoliyatlarida chet tilidan erkin foydalanuvchi mutaxassislarni tayyorlash. Shu bilan birga, ularda vatanparvarlik hissini rivojlantirish, mustaqil izlanish, bilim va ko'nikmalarini darsdan tashqari paytda ham, OTMni bitirganlaridan keyin ham rivojlantirish, hamda umumbashariy va sohaga oid mavzularda ilmiy maqolalar yoza olish, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat.

**Fanning vazifasi** – Talabalarning nutq (o'qish, yozish, tinglab tushunish, gapirish), til (leksik, grammatik), ijtimoiy-madaniy va pragmatik kompetensiyalarini rivojlantirish;

- ilmiy, kasbiy va maishiy faoliyatga bog'liq mavzular yuzasidan og'zaki va yozma bayon etish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish;
- umumbashariy va milliy qadriyatlar bilan tanishtirish, madaniyatlararo bag'rikenglik va millatlararo hamdo'stlik hislarini singdirish;
- ilmiy va kasbiy faoliyatda qo'llaniladigan termin va atamalarni o'rgatish;
- talabalarning ilmiy va sohaviy yo'nalishlaridan kelib chiqib, mustaqil ish topshiriqlarini to'g'ri va aniq ko'rsatmalar berish orqali tashkil etish.

**II. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Ushbu dastur talabalar uchun belgilab berilgan B2 (CEFR) va undan yuqori darajalarni egallashga qaratilgan. Ushbu darajaga erishish talabalarda

ilmiy va sohaviy faoliyatda yuzaga keladigan til bilan bog'liq vaziyatlarda erkin muloqotga kirish ishlarini va vaziyatni samarali hal qilishlarini ta'minlaydi. Namunaviy dastur asosida kafedralarda nofilologik yo'nalishlar uchun mutaxassislik doirasidan kelib chiqib sillabuslar va amaliy mashg'ulotlar kontenti ishlab chiqiladi.

Amaliy mashg'ulotlarda nutqiy kompetensiyaning o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish ko'nikma va malakalari integratsiyalashgan ravishda olib boriladi. Mavzuning mohiyati va mutaxassislik xususiyatlaridan kelib chiqib, u yoki bu ko'nikma va malaka darslarda asosiy deb olinadi. Bunda pedagog turli pedagogik metod va texnologiyalardan unumli foydalanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan:

**Dialog** - ijtimoiy mavzularda suhbat va norasmiy dialog; kasbiy yoki boshqa mavzularda rasmiy va norasmiy munozaralar; munozarani boshqarish, intervyu, muzokaralar va telefon orqali muloqot olib borish;

**Monolog** - ixtisoslikka oid mavzularda ma'ruza tayyorlash va o'qish; munozara, dalil va isbotlarni olg'a surish, fikrni asoslab berish; maxsus mavzularda taqdimot tayyorlash hamda chiqish qilish; ma'lumotlarni umumlashtirish, maqolalar yozish, muhokama qilish;

**O'qish** – tanishuv o'qish, ko'z yugurtirib o'qish va sinchiklab o'qish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish; xat-xabar, yozishmalar va elektron pochta o'qish; maxsus materiallarni o'zida aks ettirgan autentik matnlarni o'qish; maxsus so'z va terminlarga ega matnlarni, ilmiy va kasbga oid adabiyotlarni, elektron manbalar va matbuot materiallarini o'qish;

**Yozma nutq** – turli yozishmalar, xat-xabarlar va maxsus dokladlar (eslatma CV va hokazo) yozish; esse, bayon, rezyume, tadqiqot ishi (maqolalar, bitiruv malakaviy ishlar) yozish;

**Tinglab tushunish** - autentik materiallarni 2 marta eshitib asosiy mazmunini tushunish, zarur axborotni olish va uni bayon eta olish; kundalik yangiliklar, reportajlarni, film qahramonlari nutqini tushunish.

**Bilim va ko'nikmalarni sohaga yo'naltirish**

Kasbiy yo'naldirilgan bosqichning asosiy maqsadi:

- Natq turlari bo'yicha kasbiy sohada chet tilini amaliy egallash;
- talabani ijodiy shaxs sifatida rivojlantirish;
- soha bo'yicha adabiyotlarni tarjima qilish malaka va ko'nikmalarini rivojlantirish.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

#### 2-semestr

- 1-mavzu: Pharmacy: its history and the future
- 2-mavzu: History of pharmacy
- 3-mavzu: The future of pharmacy
- 4-mavzu: Pharmacy education
- 5-mavzu: Western pharmacy education
- 6-mavzu: Professional pharmacy education.
- 7-mavzu: Pharmaceutics
- 8-mavzu: Pharmaceutical sciences. Medicinal and pharmaceutical chemistry
- 9-mavzu: Pharmacognosy
- 10-mavzu: Pharmacy technology, industry and manufacturing.
- 11-mavzu: Pharmacy management and economics.
- 12-mavzu: Pharmacology
- 13-mavzu: What is a drug, a medication, a medicine?
- 14-mavzu: Drug names
- 15-mavzu: Drug classes
- 16-mavzu: Drug administration
- 17-mavzu: Drug interactions
- 18-mavzu: Drug toxicity
- 19-mavzu: Forms of drugs
- 20-mavzu: Solid forms of drugs
- 21-mavzu: Semisolid medicinal forms
- 22-mavzu: Liquid medicinal forms
- 23-mavzu: At a chemist's shop
- 24-mavzu: Pharmacy practice. Pharmacists
- 25-mavzu: Chemistry
- 26-mavzu: Biochemistry
- 27-mavzu: Physics
- 28-mavzu: Biology
- 29-mavzu: Microbiology

- 30-mavzu: Physiology
- 31-mavzu: Pathophysiology
- 32-mavzu: Occurrence and distribution of the elements
- 33-mavzu: D.I.Mendeleyev
- 34-mavzu: Mendeleyev's periodic law
- 35-mavzu: Hydrogen
- 36-mavzu: Oxygen
- 37-mavzu: Nitrogen
- 38-mavzu: Carbon
- 39-mavzu: Water
- 40-mavzu: Avicenna
- 41-mavzu: Avicenna (part ii)
- 42-mavzu: Botany
- 43-mavzu: Our chemical lab (part I)
- 44-mavzu: Our chemical lab (part II)
- 45-mavzu: My first experiment

#### IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

*Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:*

#### 2-semestr

1. National university of pharmacy
2. My future speciality
3. Chemist's shop
4. At the pharmacy
5. Prescriptions
6. Coldrex tablets
7. Paracetamol
8. The chemical laboratory
9. Laboratory safety
10. What is pharmacy?
11. Medicinal and pharmaceutical chemistry
12. Pharmaceutical technology, industry and manufacturing
13. Pharmacy management and economics
14. What is a drug, a medication, a medicine?
15. Drug names
16. Drug classes
17. Drug administration
18. Drug interactions
19. Drug toxicity
20. Pharmacy practice. Pharmacists

	<p>21 Biochemistry 22 My first experiment 23 Nitrogen 24 Carbon 25 Microbiology</p>
3.	<p><b>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b> <b>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</b> - nutqi (o'qish, yozish, tinglab tushunish, gapirish), tili (leksik, grammatik), ijtimoiy-madaniy va pragmatik kompetensiyalari oshadi; - ilmiy, kasbiy va maishiy faoliyatga bog'lik mavzular yuzasidan termin va atamalarni o'rganishi natijasida og'zaki va yozma bayon etish ko'nikma va malakalari rivojlanadi; - umumbashariy va milliy qadriyatlar bilan tanishish orqali madaniyatlararo bog'rikenglik va millatlararo hamdo'stlik, vatanparvarlik tuyg'ulariga ega bo'ladi.</p>
4.	<p><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• dialog, monolog, debat;</li> <li>• tanishuv o'qish, ko'z yugurtirib o'qish va sinchiklab o'qish;</li> <li>• muammoli vaziyat va keys-stadilar;</li> <li>• mantiqiy fiklash, tezkor savol-javob, aqliy hujum;</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlar qilish;</li> <li>• individual loyihalar;</li> <li>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar</li> </ul>
5.	<p><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b> Fanga oid amaliy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, o'rganilayotgan mavzular haqida mustaqil mushohada yuritish, hamda joriy, oraliq va yakuniy nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish.</p>
6.	<p><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. English for pharmacy students / З. Р. Палютина. – Уфа: Изд-во ГБОУ ВПО БГМУ Минздрава России, 2014 – 204 с.</li> <li>2. Пособие по английскому языку для фармацевтических училищ. /Под редакцией М.С. Пастернака. – М.: АНМЙ, 2004. – 282 с.</li> <li>3. English in Pharmacy: A Guide for Pharmacy Students: the textbook for applicants for higher education / L. G. Budanova, S. V. Zhurkina, I. V. Kolyada – Kharkiv: NUPh, 2018. – 363 p.</li> </ol> <p><b>Qo'shimcha adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Raymond Murphy. English Grammar in Use. Elementary, Intermediate</li> </ol>

	<p>books. Cambridge University Press, 2019-320p. 2. Michael McCarthy, Felicity O'Dell, Stuart Redman. English Vocabulary in Use. Elementary, Pre-Intermediate and Intermediate. Cambridge University Press, 2017-176p 3. Destination B1. Malcolm Man, Steve Taylore-Knowles. Macmillan-255p</p>
7.	<p>Fanning o'quv dasturi Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tomonidan ishlab chiqildi va tasdiqlandi.</p>
8.	<p><b>Fan/modul uchun mas'ullar:</b> O'.Abdinazarov - TISU "Fakultetlararo chet tili" kafedrasida, katta o'qituvchi Sh. Tojiboyeva - TISU "Fakultetlararo chet tili" kafedrasida, o'qituvchi</p>
9.	<p><b>Taqrizchilar:</b> f.f.f.d. Z.Normurodov – Termiz davlat universiteti Xorijiy til va adabiyoti kafedrasida dotsenti</p>